

Xoliqova Dilnavoz Alimatovna

f.f.n., dotsent.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi HTM PK MOM dotsenti

Toshpulatov Xayotillo Maxamadaminovich

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi magistranti

TARBIYADA QADRIYAT VA VATANPARVARLIK UYG‘UNLIGI

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda qadriyatlarning tutgan o‘rni muhokama qilingan. Qadriyat tushunchasi, termenning mohiyati uning boshqa xalqlardagi asosiy ma’nosи turli manbalardagi tushunchalar bilan qiyosiy o‘rganilgan. Qadriyat, millliy qadriyat, mentalitet, an’ana tushunchalari tahlil qilingan. Yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasi, unga salbiy ta’sir qiluvchi omillar o‘rganilgan va xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Yoshlar tarbiyasi, vatanparvarlik ruhi, tarbiyada qadriyatlар, qadriyat tushunchasi, mentalitet mohiyati, millliy qadriyat, an’ana tushunchasi, salbiy ta’sir, tashqi omillar, millliy o‘zlik.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль ценностей в воспитании молодежи в духе патриотизма. Понятие ценности, сущность термина, его основное значение у других народов изучались сравнительно с понятиями из разных источников. Анализируются понятия ценности, национальной ценности, менталитета и традиции. Изучены патриотическое воспитание молодежи, факторы, отрицательно влияющие на него, и сделаны выводы.

Ключевые слова: Воспитание молодежи, патриотический дух, ценности в образовании, понятие ценности, сущность менталитета, национальная ценность, понятие традиции, негативное влияние, внешние факторы, национальная идентичность.

Abstract: This article examines the role of values in educating young people in the spirit of patriotism. The concept of value, the essence of the term, its basic meaning among other peoples were studied in comparison with concepts from various sources. The concepts of value, national value, mentality and tradition are analyzed. The patriotic education of youth, the factors that negatively influence it, have been studied, and conclusions have been drawn.

Key words: Youth education, patriotic spirit, values in education, concept of value, essence of mentality, national value, concept of tradition, negative influence, external factors, national identity.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni ona-Vatanga, o‘z tug‘ilib o‘sgan joyiga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalash insoniyat tarixi shakllangan davrdan to bugungi kungacha o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. O‘sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi bugungi shiddat bilan kechayotgan davrda, ayniqsa, muhim va kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Harbiy xizmatchilarni mamlakatning qurolli himoyachisi sifatida jangovar tayyorgarligini, intellektual rivojlanishini amalga oshirish bilan birga ularni ma’naviy-ma’rifiy jihatdan tarbiyalash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh. Mirziyoyev: “Yuksak ma’naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlargi, o‘z mustaqil fikriga

ega bo‘lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir”[1], - deya qat’iy fikrlarini bildirganlar.

Milliy qadriyatlarimiz, tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo‘lgan ishonchni kuchaytirish kabi vazifalar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning bosh maqsadi hisoblanadi. Yuksak ma’naviyatli, ma’rifatli, axloqli inson o‘zining va yurtining, xalqining bugungi kuni va kelajagi haqida fikr yuritadi, qayg‘uradi, shuningdek, kelgusi hayoti va turmushining ravnaqi uchun o‘z hissasini qo‘shadi. Vatanparvarlikni oshirishda albatta milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘rnini beqiyos ekanligini unutmasligimiz lozim. Qadriyat tushunchaci – arabcha “qadr” - jamiyatda, kishilar o‘rtasida tutgan o‘rin, obro‘, e’tibor, hurmat nufuz, -iyat – qo‘srimchasi birikmasi bo‘lib, millatning tarixiy qadrli qimmatli moddiy va ma’naviy boyliklari ma’nosini bildiradi[1]. Ruslarda “Qomusiy sotsiologik lug‘at”da ta’riflanganidek qadriyat tushunchasi – “sennost” – “ijtimoiy predmetning ijtimoiy subyekt (inson, odamlap gupuhi, jamiyat)ning muayyan ehtiyojlarini qondirish xossasi, shuningdek, voqelik muayyan hodisalarining jamiyat uchun ijtimoiy-tarixiy ahamiyatini va inson uchun shaxsiy mazmunini tavsiflaydigan tushunchadip” deb izohlangan[10]. Shuningdek, tushunchaning mazmuniga ko‘ra farqlanishi “Qisqacha falsafiy ensiklopediya”da tushuncha mazmuniga ko‘ra ashyoviy, mantiqiy, estetik va axloqiy qadriyatlar sifatida quyidagicha fapqlanadi: yoqimli, foydali va yaroqli; haqiqat, yaxshilik, go‘zallik”, - deb izohlangan[2]. Rus sotsiologi V.P.Tugarinov qadriyat tushunchasining mazmunini ehtiyoj, manfaat, qiymat kategoriyalari bilan aloqadorlikda oolib beradi.

Ushbu tushuncha inglizlarda “value”, fpansuzlarda esa – “valuer”, nemis xalqida – “wert” terminlari bilan izohlanadi [3].

Qadriyat – “Ma’naviyat – asosiy tushunchalar izohli lug‘ati”da inson va jamiyat ma’naviyatning tarkibiy qismi, olamdagи voqeа-hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartibning qadrini ifodalash uchun ishlataladigan tushuncha. Aksiologiyaning eng asosiy kategoriysi...” izohi bilan boshlangan ta’rif jamlanmasi berilgan[7].

Qadriyatlar alohida bir fan sifatida – Aksiologiya nomi bilan dunyo ta’lim tizimida muhim o‘ringa ega. Yevropada mustaqil fan sifatida allaqachon tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar, amaliyotlar jadal olib borilmoqda.

“Qadriyatlarni ilmiy o‘rganish XIX asr o‘rtalarida inson hayot faoliyatining umumiy falsafiy tahlili kontekstida mustaqil ijtimoiy-falsafiy tarmoq sifatida vujudga keldi. Qadriyatlarga oid ta’limotlardan dastlab namoyon bo‘lganlardan biri neokantchilik ijtimoiy-falsafiy yo‘nalishidir. Neokantchilik Baden (*Freyburg*) maktabi vakillapi (V.Vindelband, G.Rikkert) va Marburg maktabi namoyandalapi (P.Natorp, E.Kassirer va b.) siymosida qadriyatlarni ideal borliq sifatida tavsiflagan. Tpansendental subyekt mazkur idealning tashuvchisi hisoblangan. Personalistik ontologizm (M.Sheller) qadriyatlarning obyektiv xucuciyatini icbotlashga hapakat qilgan. Natupalictik pcixologizm (A.Meynong, J.Dyui va b.) qadriyatlarga empiyik qayd etish mumkin bo‘lgan voqelikning obyektiv omillari sifatida yondashgan. Madaniy-tapixiy relyativizm (V.Diltey, O.Spengler, A.Toyntbi) ko‘p sonli teng huquqli qadriyatlar tizimlari mavjudligini isbotlashga harakat qilgan bo‘lsa, M.Veber, F.Znaneskiyning “tushunadigan sotsiologiya”si hamda tapkibiy-funksional tahlil maktabi (T.Parsons, E.Shilz, K.Klakxon) vakillarining mazkur muammoni ijtimoiy nazariya doirasida tadqiq etishni ma’qul ko‘rgan[9].

Qadriyat tushunchasi bilan bir ma'noda an'ana tushunchasi ham qo'llaniladi. Shu ma'noda an'ana o'tmishdan bugunga va kelajakka meros bo'ladigan, avlodlardan o'tib kelayotgan, jamiyatning u yoki bu hayotida har sohada namoyon bo'ladigan moddiy va ma'naviy qadriyatlar, deyish mumkin.

An'analarning

- Ijtimoiy tarixiy voqeal;
- Jamiyatdagi jarayonlarning asosi;
- Kishilar hayoti va faoliyati mezoni;
- Jamiyat va jamoalarni boshqarishning ma'naviy omili kabi yo'naliishlarda omil sifatida asoslashimiz mumkin.

Xullas, qadriyat tushunchasi bugungi ma'naviyat o'lchamlari ko'payib ketgan dunyomizda eng muhim tushuncha, eng asosiy tarbiya vositasi, eng kerakli ta'lim quroli bo'lib qolmoqda.

Vatanparvarlikni takomillashtirishda bugungi global o'zgarishlar, G'arb ma'naviyatidagi o'zgarishlar oqimi kuchaygan bir paytda eng to'g'ri vosita milliy ma'naviy qadriyatlarni yoshlarga anglatish zaruratidir. So'nggi yillarda g'arbona tashviqot, rangli madaniyat bizning jamiyatimizga ham ta'sir ko'rsatyapti. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, buning asosiy sababi har sohada kuzatilayotgan globallashuv jarayonlari zamirida ayrim xorijiy davlatlar va siyosiy kuchlar tomonidan ma'naviyatsizlik "kasalini", axloqsizlik "epidemiyasini", o'zining falsafasini, me'yor va mezonlarini "jahon standarti" darajasiga ko'tarib, boshqalarga zo'r lab singdirish va ulardan o'z geosiyosiy maqsadlariga erishish yo'lida foydalanishga urinayotganligidadir[8].

Xususan, bu haqda mamlakatimiz Prezidenti - Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-20-sentabr kunlari BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi o'z nutqida:
"Ekstremistik faoliyat va zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshga yetmagan yoshlar tomonidan sodir etilayotganligiga to'xtalib, yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun sharoit yaratib berish va ular orasida zo'ravonlik g'oyasi "virusi"ning tarqalishini oldini olish, dunyo hamjamiyatining asosiy vazifalaridan biri ekanligini alohida ta'kidlaganlar"[5].

Hozirgi kunda dunyo mamlakatlarining o'zaro aloqalari integratsiya jarayonlari tezlashayotgan davrda xalqaro munosabatlar va aloqalar yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. Voqeal va hodisalarining tez va shiddat bilan o'zgarishi ham zamonni murakkablashtirmoqda. Ayni paytda yer yuzining qaysi chekkasida qanday voqeal yuz bermasin, odamzod bu haqda dunyoning boshqa chekkasida turib bir onda xabar topishi muammo emas.

Vatanparvarlik tuyg'usini avlodlar qalbiga singdirish mamlakatimiz hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Hech bir inson o'z-o'zidan vatanparvar bo'lib qolmaydi, xalqparvarga aylanmaydi, ularga bu tushuncha ma'nan va amaliy beriladi. Shuni yodda tutish kerakka, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – bu millati, tili va kasbidan qat'i nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitutsiyon majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarining ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyati hisoblanadi. Bu borada otabobolarimizdan bizgacha kelayotgan milliy qadriyatlarga tayanish joiz.

Qadriyatlarni inson mentalitetida aks etish masalalarini o'rgangan tadqiqotchi S.V.Lure inson mentalitetida birinchi navbatda qadriyatlarni aks etadi, degan fikrni ilgari suradi, uning fikricha mentalitet so'zi "an'ana" tushunchasi bilan juftlashib amal qilishga qodir, chunki harakatchanlikni,

o‘tmish bilan ham, hozirgi davr bilan ham bog‘liqlikni an’ana ham, mentalitet ham nazarda tutadi. Aytish mumkinki, an’ana xalq mentalitetida aks etadi. Sodda qilib aytganda, mentalitet an’ananing faol nomoddiy bir elementi. Mentalitet – inson fitratidagi, yashash sharoiti, geografik muhitiga ko‘ra har xil ko‘rinishlarda amal qilishi mumkin bo‘lgan, lekin butun ijtimoiy jamiyat uchun umumiy bo‘lgan va uning ichki madaniy asosi sifatida xizmat qiladigan o‘zak-o‘zlik qadriyatli mansublik, deb izohlasak bo‘ladi. Xususan, “Ma’naviyat – asosiy tushunchalar izohli lug‘ati”da mentalitet tushunchasi : ““lot. Mens - -aql, idrok)” – jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma’naviy salohiyati, ularning hayot qonuniyatlarini tahlil etish kuchi, muayyyan ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvatini ifoda etuvchi tushuncha” fikrlari berilgan[7].

Demak vatanparvarlik tuyg‘usi milliy mentalitetga ham bog‘liq bo‘lib, uni rivojlantirishda etnik asos, milliy mentalitet ham inobatga olinishi lozim.

O‘z Vatanini, ona yurtini, xalqini cheksiz sevish, Vatan manfaatlari uchun jonbozlik ko‘rsatish vatanparvarlarga xos yuksak insoniy fazilat sanalib, yoshlarimizlarda mazkur tuyg‘ularning kuchliligi Vatanimiz qudrati va salohiyatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bugun yoshlarni yurt taqdiri uchun mas’uliyat tuyg‘usini mustahkamlash, ularni o‘z tanlagan kasbiga sadoqatli va har tomonlama yetuk kadrlar etib tarbiyalash bo‘yicha aniq chora-tadbirlar rejasи ishlab chiqilib, ta’lim muassasalari, mehnat jamoalari va mahallalarda uyushgan va uyushmagan yoshlar hamda milliy armiyamiz saflaridagi yosh avlod vakillari bilan harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishidagi tadbirlarni tizimli tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ammo bu o‘tkazilayotgan tadbirlar samarasi ilmiy tashxis qilish to‘g‘ri amalga oshirilmayapti. Qog‘ozbozlik va hisobot uchun xizmat qiladigan tadbirlar o‘rnida yoshlarga zamonaviy uslubda, ularga yoqadigan ssenariylar asosida tashkil etiladigan targ‘ibot ishlari ta’siri kuchli bo‘ladi.

Yuqoridagi fikrlarga tayanib xulosa qilish mumkinki, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ta’lim-tarbiyada birlamchi omil darajasida ustivorlik kasb etadi. Milliy qadriyat milily g‘urur, milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik tuyg‘ularini kamol toptirishga xizmat qiladi.

Vatanparvarlikni takomillashtirish uchun tashkil etilayotgan tadbirlar yoshlar talab-ehtiyoji, saviyasi, dunyoqarashini inobatga olgan holda an’analarga tayanib tashkil etilsa, natijalarga erishish kafolatlanadi.

Yoshlarda faol hayotiy pozitsiya va o‘zining mustaqil fikr-mulohazalarini aniq bayon eta olish, mas’uliyatni his etish, qat‘iy tartib va intizomga rioya qilish fazilatlarini shakllantirish, ularni qat‘iyatli bo‘lishga o‘rgatish bilan birga tarbiyada milliylikni ham qorishiq tarzda olib borish lozim.

Vatanparvarlik tadbirini tashkillashtiruvchi mas’ul shaxs ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishdagi ishlarning samaradorligiga erishishi uchun juda katta tajriba, mas’uliyat, harbiy-kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi bilan bir qatorda psixologik-pedagogik bilim, keng dunyoqarash, chuqur tafakkur, pedagogik mahorat talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Акбаров С.Ф. ва бошқ.Ўзбек тилининг изохли лугати. 2-том (С-Х). –М.: Рус. Яз., 1981. 715 б. (534 бет.)
2. Краткая философская энциклопедия. – Москва: 1994. – С.507.
3. Каган М.С. Философская теория ценности - СП(б): 2005. –С. 100.

4. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1- жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.–Б. 89.
 5. Мирзиёев Ш.М. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи // Ватанпарвар, 2017 йил 22 сентябрь.
 6. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2- жилд. – Тошкент:“Ўзбекистон”, 2019.–Б. 457.
 7. Маънавият – асосий тушунчалар изоҳли лугати. –Т., Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси, Faфур Ғулом номидаги нишриёт-матбаа ижодий уйи, 2010. 757 б.–Б 707.
 8. Қуронов М. “Маънавий таҳдидларга қарши курашнинг илмий-услубий ҳамда ғоявий-мағкуравий асослари” мавзусидаги республика илмий-услубий конференцияси материаллари. – Т.: Муҳаррир, 2010. – 3 б.
 9. Таджибаев Б. Наманган муҳандислик технология институти ижтимоий фанлар” кафедраси в.б. доценти қадриятлар ва девиантлик). “Ёшлар орасида қадриятлар ва мөъёллар трансформацияси” мақолалар тўплами. – Т.: ЁМЎИКТИ, 2022. (-Б 69) – 246 б.
 10. Энциклопедический социологический словарь. – Москва: 2004. – С. 871.
-
11. Rustamov, L. (2022). IMPLEMENTATION OF A PERSON-ORIENTED APPROACH IN PROFESSIONAL ACTIVITIES OF STUDENTS. *Science and Innovation*, 1(8), 1259-1262.
 12. Rustamov, L. (2022). TALABALARNING KASBIY FAOLIYATLARIDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN YONDASHUVNI AMALGA OSHIRISH. *Science and innovation*, 1(B8), 1259-1262.
 13. Абдуллаева, Б. С., & Рустамов, Л. Х. (2013). ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ. *SCIENCE AND WORLD*, 103.
 14. Рустамов, Л. Х., & Умматов, Н. Р. (2013). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ. *SCIENCE AND WORLD*, 59.